

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI
SUD-EKSPERLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



BINO VA INSHOOTLAR QURILISHIGA
QO‘YILAYOTGAN TALABLAR
(amaliy qo‘llanma)



TOSHKENT – 2023

Mualliflar:

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi boshlig'i Z. Maxmudova

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud-eksperlik ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi T. Muxitdinov

Mazkur amaliy qo'llanma fuqarolarga sud-qurilish-texnik ekspertizalari yo'nalishida sud-ekspertlari tomonidan tavsiyalar va tushunchalar berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Fuqaro va sanoat binolari hamda inshootlari ko'rinishlari, fazoviy ko'rsatkichlari, vazifalari va ularga qo'yilgan talablar bo'yicha ma'lum ta'rif va tushunchalarga ega. Quyida shu masalani sodda va tushunarli ko'rinishda ifodalash uchun tegishli ta'riflar va tushunchalar keltirilgan.



BINO — kishilarning biror ish faoliyatiga mo'ljallangan va moslashtirilgan, ichki fazoga-bo'shliqqa ega bo'lgan yer usti inshooti.



INSHOOT — jamiyatning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kishilar tomonidan bunyod etilgan barcha qurilmalar.



MUHANDISLIK INSHOOTLARI — amaliy ish faoliyatida foydalaniladigan, binolarga aloqasi bo'lmagan inshootlar: to'g'onlar, ko'priklar, televizion minora, tunellar, metropoliten, turli mahsulotlarni saqlaydigan katta hajmdagi idishlar va boshq.

Binolar *vazifasiga* ko'ra fuqaro turar-joy va jamoatchilik, sanoat va qishloq xo'jaligi binolari guruhlariga ajratiladi.

Fuqarolik binolari

- kishilarning maishiy va jamoatchilik ehtiyojlariga mo'ljallangan binolar: turar-joy binolari yashash uchun qurilgan uylar, yotoqxonalar, mehmonxonalar va boshqalar.

Jamoatchilik binolari

- ma'muriy, o'quv, madaniy, savdo, kommunal-xo'jalik, sport va boshqa binolar

Sanoat binolari

- biror sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda mehnat jarayonini amalga oshirish uchun mo'ljallangan va ichiga ishlab chiqarish qurollari joylashtirilgan binolar: ustaxonalar, garajlar, elektrostansiyalar, omborlar, tsex binolari.

Qishloq xo'jaligi binolari

- qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan binolar: molxona, parrandaxona, issiqxonalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlanadigan omborlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan binolar tashqi ko'rinishi va me'moriy konstruktiv yechimlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Devoriy materialga ko'ra binolar tosh devorli yoki yog'och devorli bo'lishi mumkin.

Ko‘rinishiga va katta-kichikligiga ko‘ra esa mayda elementlardan g‘isht, sopol blok, mayda blok qurilgan va yirik elementlardan yirik bloklar, panellar, hajmiy blok va hokazolardan qurilgan binolar bo‘lishi mumkin. Qavatlar soniga ko‘ra binolar kam qavatli 1-2 qavatli, o‘rtacha qavatli 3-5 qavatli, ko‘p qavatli 6-10 qavatli, juda baland 11-16 qavatli, osmono‘par qavatlar soni 16 dan ham ko‘p binolarga bo‘linadi.

Joylashishiga qarab bino qavatlar yerdan yuqorida, tsokol qismida, yerto‘la qismida (podval) joylashgan va monsarddan iborat bo‘lishi mumkin.

Qurilish texnologiyasiga ko‘ra binolar: tayyor beton konstruksiyalardan yig‘ilgan binolar, zavodda tayyorlangan industrial konstruksiyalardan montaj qilingan binolar, devorlari g‘isht, mayda blok va shu kabi mayda elementlardan tiklangan binolar turkumiga bo‘linadi.

Keng tarqalganligiga ko‘ra binolar:

-andoza loyiha asosida quriladigan ommaviy binolar (turar-joy binolari, maktablar, maktabgacha ta‘lim muassasalar, poliklinikalar, kino-teatrlar va boshqalar);

-alohida loyihalar asosida quriladigan nodir binolar (teatrlar, muzeylar, sport binolari, ma‘muriy binolar va hokazolar) kabi turlarga bo‘linishi mumkin.

Binoda asosiy va yordamchi vazifaga mo‘ljallangan xonalarni bir-biri bilan tutashtiruvchi, kishilar harakatini ta‘minlaydigan joylar ham bo‘ladi. Bu joylar kommunikatsiya xonalari deb ataladi. Bularga koridorlar yo‘laklar, zinalar, dahlizlar va boshqalar kiradi. Binodagi xonalarning hammasida mo‘ljallangan vazifani bajarish uchun optimal, ya‘ni *muhit* yaratilgan bo‘lishi kerak.

Muhit deganda juda ko‘p omillar, ya‘ni xonalarning shinamligi, asbob-uskunalarining qulay joylashganligi, havo muhiti holati temperatura va namlik, xonadagi havo almashinishi; tovush rejimi eshitishni ta‘minlash va shovqindan himoya qilish; yorug‘lik rejimi; kishilarni evakuatsiya qilish chog‘ida harakat qulayligi va xavsizligini ta‘minlash kabilar tushuniladi. Binoni loyihalashda bularning hammasini e‘tiborga olish lozim. Bu talablar binolarning har bir turi va uning xonalari uchun “Qurilish me‘yorlari va qoidalari” QMQ asosida amalga oshiriladi. Binoning texnik muvofiqligi butun binoga yoki uning ayrim elementlariga ta‘sir etayotgan hamma ichki, tashqi kuchlar, muhit bo‘yicha konstruksiyalarini hisoblash orqali aniqlanadi. Bu ta‘sirlar tashqi kuch yoki muhit ta‘siri ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Tashqi kuchlarga bino elementlari qismlarining xususiy og‘irligi doimiy yuklar, uskunalar, kishilar, qor og‘irligi, shamolning ta‘sir kuchi muvaqqat yuklar, yer qimirlashi va uskunalarining tasodifiy buzilishi avariya natijasidagi ta‘sirlar va boshqalar kiradi.

Muhit ta‘siriga esa temperaturaning ta‘siri konstruksiya chiziqli o‘lchamlarining o‘zgarishiga olib keladi, atmosfera va tuproq namligi ta‘siri konstruksiya materiali xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladi, havo oqimi yo‘nalishining ta‘siri xona ichidagi mikro iqlimning o‘zgarishiga olib keladi; quyosh nuri energiyasining ta‘siri konstruksiya material fizik-texnik xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladi, havo tarkibidagi agressiv kimyoviy birikmalar ta‘siri konstruksiyalarning yemirilishiga va buzilishiga olib keladi, biologik ta‘sir mikroorganizmlar va qurt-qumursqalar konstruksiyani yemiradi, bino ichidagi yoki

tashqarisidagi shovqin ta'siridan xonaning normal akustik rejimini buzilishi kiradi. Yuqorida keltirilgan ta'sirlarni hisobga olgan holda binolar mustahkamlik, ustivorlik va pishiqlik uzoq vaqt buzilmaslik talablarini qondirishi kerak. Bino mustahkamligi deganda uning tashqi kuchlar ta'siridan uzoq vaqt buzilmasdan hamda ortiqcha deformatsiyaga uchramasdan o'z vazifasini bajarib turishi tushuniladi.

Binoning tashqi ta'sirlardan o'z muvozanatini saqlab turishi, *binoning ustivorligi turg'unligi* deb ataladi.

Binolar quyidagi qismlardan tashkil topishi mumkin:

1. Hajmiy elementlar, ya'ni bino hajmining yirik qismlari

- alohida xonalar, sanitariya kabinalari va h.k.

Konstruktiv elementlar, ya'ni bino tuzilishini belgilovchi asosiy qismlar

- poydevorlar, devorlar, to'sinlar, qavatlararo yopmalar, yopmalar, tomlar va boshqalar

Qurilish ashyolari, ya'ni konstruktiv elementni tashkil etuvchi, nisbatan kichik qismlar

- g'isht, beton, oyna, po'lat, armatura va boshqalar

Qurilishni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri qurilishni industrilashtirish hisoblanadi. Bu degan so'z qurilish korxonalarini tubdan o'zgartirish, maksimal tayyor yirik konstruksiyalar va ularning elementlari hamda bloklarini mexanizatsiya yordamida uzluksiz jarayonda yig'ish va montaj qilish demakdir. Ixtisoslashgan zavodlarda tayyorlangan bunday konstruksiyalar yig'ma konstruksiyalar deb ataladi. Bu konstruksiyalarni tayyorlash va montaj ishlarini mexanizatsiyalash qurilishda, mehnat sarfini kamaytirishga, qurilish muddatlarini qisqartirishga, sifatini oshirishga, narxini pasaytirishga hamda materiallarni tejashga olib keladi. Qurilishni industrilashtirishning asosiy belgilaridan biri qurilish-montaj ishlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ularda ishlatiladigan konstruksiyalarni esa yirik temir beton buyumlari zavodlarida, uy-joy qurilish kombinatlarida maksimal yig'ma holda ko'plab ishlab chiqarilishidir. Yig'ma konstruksiyalarni har xil materiallardan ishlab chiqarish mumkin. Hozir zavodlarda yig'ma konstruksiyalar ko'pincha temir-betondan ishlab chiqariladi.

Qurilish amaliyotida katta o'lchamli po'lat konstruksiyalar bilan birgalikda yengil metall qotishma va plastmassadan ishlangan yig'ma konstruksiyalar tobora ko'proq ishlatilmoqda. Yig'ma elementlarni ishlab chiqarish vaqtida buyumlarning turlarini kamaytirish texnik va iqtisodiy jihatdan juda muhim hisoblanadi. Bunga

erishish uchun ularni bir xilga keltirish, tiplarga ajratish va standartlash talab qilinadi. Bir xillash (unifikatsiya) deganda turli xil yig‘ma konstruksiyalardagi detallarning o‘lchamlarini bir xillashtirish tushuniladi: bunda ularni tayyorlash texnologiyasi ancha soddalashadi, montaj ishlari tezlashadi. Qurilish konstruksiyalarini bir xillash binoning hajmiy planlashtirish parametrlari: qavatlarining balandligi, prolyotlar o‘lchamlarining turli-tumanligini kamaytirishga hamda konstruksiyaga ta’sir etadigan hisobiy yuklar (nagruzka)ni unifikatsiyalashga asoslangan. Bir xil shakldagi konstruksiyalarni har xil maqsadlarga mo‘ljallangan binolarda ishlatilishi mumkin, ya’ni bunday holda konstruksiyalar bir-birlarining o‘rnida ishlatilib, ularning universalligi ta’minlanadi.

O‘rnini almashtirish deganda biror elementni bino parametrlarini o‘zgartirmasdan boshqa o‘lchamga ega bo‘lgan detall bilan almashtirish tushuniladi, masalan, kengligi 3000 mm bo‘lgan tom yopma plitalari o‘rniga eni 1500 mm plitalardan ikkitasini ishlatish va h.k. bitta konstruksiya elementini tipi va katta-kichikligi bo‘yicha har xil ko‘rinishdagi binolarda ishlatish mumkinligi elementning universalligi deyiladi. Tiplarga ajratish qurilishda ko‘p marta foydalanishga yaraydigan ayrim konstruksiyalarning iqtisodiy jihatdan eng samarali yechimini topish va tanlashdan iborat. Tiplarga ajratish qurilish konstruksiyalarining tip - o‘lchamlarini, hamda binolarning tiplari sonini kamaytirish imkoniyatini vujudga keltirish bilan birga qurilish ishlarini osonlashtiradi va arzonlashtiradi. Loyiha tashkilotlari tomonidan taklif etilgan va qurilish amaliyotida tekshirib ko‘rilgan tipovoy detallar va konstruksiyalar standartlashtiriladi (na’muna). Standartlash qurilish konstruksiyalari va buyumlarini bir xillash hamda tiplarga ajratishning eng so‘nggi bosqichidir. Standartlashtirilgan qurilish elementlari detallar va konstruksiyalar uchun ma’lum bir shaklga, o‘lchamlarga, sifatlarga ega bo‘lib, ularni tayyorlashda muayyan texnik talab va shartlarga qat’iy rioya qilinadi.



Binolar loyihasini yaratishda standartlashtirilgan va kataloglarga kiritilgan, buyum va detallar qo‘llanadi. Ko‘plab quriladigan binolarda ishlatiladigan yig‘ma buyumlarning tiplari sonini kamaytirish maqsadida detallarning yagona sortmenti ishlab chiqarilgan. Qurilish detallarining yagona sortimentni joriy etish buyumlarni ko‘plab ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga, ularning sifatini oshirishga va tannarxini pasaytirishga yordam beradi.

Binolarning ichki bo‘limini alohida xonalarga ajratish mumkin uy-joy xonasi, oshxona, sinflar, xizmat xonasi, tsex va hokazolar. Bir hil balandlik darajasida joylashgan xonalar qavatlarni tashkil qiladi.

O‘z navbatida qavatlararo yopmalar binoni balandligi bo‘yicha qavatlarga ajratib turadi.

Har qanday binoni bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan qism va elementlarga, ya’ni bir-birini to‘ldirib turuvchi va aniqlab beruvchi uchta guruhga ajratish mumkin:

- hajmiy rejalashtirish elementlari, ya'ni bino hajmining yirik qismlari qavat, alohida xonalar va hokazolar;

- konstruktiv elementlar, ya'ni bino tuzilishini aniqlab beruvchi qismlari poydevorlar, devorlar, qavatlararo yopmalar, tom va hokazolar;
- qurilish buyumlari, ya'ni konstruktiv elementni tashkil etuvchi nisbatan kichik qismlar g'isht, beton, oyna, po'lat armatura va hokazolar.

BINOLARGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

Binolarga qo'yiladigan funksional, texnik, me'moriy-badiiy va iqtisodiy talablar.

Qurilish materiallarining, konstruksiyalarining va binolarning yong'in xavfliligi bo'yicha tavsiflari.


Binolar qanday vazifalarga xizmat qilishidan qat'iy nazar quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim, ya'ni:

Funksional (funksional –texnologik maqsadga muvofiqlik);

Texnik (texnik yechimlarning maqsadga muvofiqligi);

Estetik (me'moriy-badiiy ma'nodorlik);

Iqtisodiy (iqtisodiy maqsadga muvofiqlik).



Funksional maqsadga muvofiqlik – bino yashashga, ishlashga, dam olishga yoki u mo'ljallangan boshqa jarayonlar uchun qulay bo'lishi kerak;

Texnik maqsadga muvofiqlik – bino odamlarni zararli atmosfera (past temperatura, yog'ingarchilik, shamol) ta'sirlaridan ishonchli himoya qilishi, mustaxkam bo'lishi, ya'ni xar qanday tashqi (masalan, binodagi odamlar, mashinalar, jihozlardan kelayotgan yuklar) ta'sirlarga chidamli va uzoqqa chidamli, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'zining sifatini yo'qotmasligi kerak;

Estetik, ya'ni me'moriy-badiiy ma'nodorlik – bino o'zining tashqi ko'rinishi, ichki qiyofasi orqali kishilar ongiga va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, boshqacha qilib aytganda, ko'zni quvontiradigan bo'lishi kerak;



Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik

– binoni qurishga minimal mehnat mablag‘ va vaqt sarflab, maksimal foydali maydon olishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik talabi faqatgina qurilish vaqtidagi xarajatlargagina tadbiiq etilmay, binoning vazifasiga muvofiq ishlash davriga ham ta’luqlidir.

Funksional talablarni ifodalovchi ayrim nazariy asoslarni

ko‘rib o‘tamiz. Binoda yoki uning rejaviy elementi - xonada inson uchun qulay sharoitlar (muhit) yaratilgan bo‘lsa, bino yoki xona o‘z vazifasiga muvofiq xisoblanadi. Yaratilgan muhitning sifati bir qator omillarga bog‘liq. Yashash muhiti sifatini xarakterlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- ichki fazo, odam faoliyat ko‘rsata olishi, turli asbob va jixozlarni joylashtirish, odamlar xarakatlanib yura olishi uchun zarur bo‘lgan joylar (xonaning uzunligi, kengligi va balandligi);

- havo muhitining holati (mikroiqlim), inson nafas olishi uchun xonadagi zahira xavoning optimal temperaturasi, nisbiy namligi, xarakat tezligi va tozalik darajasi orqali xonada yaratiladigan muhitning sifatini ifodalovchi omil;

- tovush rejimi xonadagi eshitish uchun yaratilgan sharoitni, uning yoqimsiz, halaqit beruvchi tovushlardan (shovqin) ximoyalanganlik darajasini ifodalovchi omil bo‘lib, inson organizmiga va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Akustika tovush haqidagi fandi; arxitektura akustikasi – xonalardagi tovushning yutilishi, tarqalishi va yutilishi to‘g‘risidagi fan; qurilish akustikasi esa tovushning konstruksiya orqali uzatilishini o‘rgandi.

- yorug‘lik rejimi, xonalarda yoritilganlikni yetarli bo‘lishini ta’minlash va yoritishni to‘g‘ri tashkil qilishga bog‘liq holda ko‘rish organlarining ishlash sharoitini belgilovchi omil; yorug‘lik xarakteristikalari bevosita ko‘rish organlariga va inson nerv tizimiga ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega.

- to‘siqiz ko‘rish va ko‘rganni to‘g‘ri idrok qilish, tomosha zallarida, darsxonalarda yaratilgan muhitning sifatini belgilovchi omil; ko‘rish sharoiti bevosita yorug‘lik rejimi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

- insolyatsiya, xonalarga tabiiy quyosh nurlarining to‘g‘ridan to‘g‘ri tushishi orqali yoritilishidir;

Sanitar gigienik talablarga ko‘ra quyosh nurlarining ahamiyati juda katta bo‘lib, u ko‘plab zararli bakteriyalarni yo‘qotib, insonlarni sog‘lomlashtirish va psixofiziologik ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Insolyatsiya davomiyligi sanitar me’yorlar orqali belgilanadi.

- obodonlashtirish tadbirlari, binoning vazifasidan kelib chiqqan holda muxandislik va boshqa zarur texnik jixozlar bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalovchi omil.

Bu omillarning xar biri xonaning o‘lchamlarini, shakllarini va konstruksiyalarini tanlashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xonalarni to‘g‘ri loyihalash,

odamlar bajaradigan funksiyaga muvofiq ravishda oqilona sharoitlar yaratish uchun muhit sifatini belgilovchi barcha tadbirlar ko‘rilishi shart. Shunda bino yoki inshootning loyiha yechimi funksional maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Binoning texnik maqsadga muvofiqligini uning konstruktiv yechimi belgilaydi. Binoning konstruktiv yechimi mexanika, fizika va kimyoviy qonunlarga to‘la muvofiq bo‘lishi zarur. Binolar va ularning alohida konstruktiv qismlariga va elementlariga bo‘ladigan tashqi va ichki ta’sirlar juda hilma-hil. Ularni *kuch* va *kuch bo‘lmagan (muhit)* ta’sirlarga bo‘lish mumkin.

Kuch ta’sirlarga quyidagilar kiradi:

doimiy yuklar – bino elementlarining xususiy og‘irligi va yer ostidagi elementlarga gruntning bosimi;

uzoq vaqt ta’sir etuvchi yuklar – qo‘zg‘almas jixozlar, uzoq saqlanadigan yuklar va parda-devorlar kabi elementlardan hosil bo‘ladigan yuklar;

qisqa vaqt ta’sir etuvchi yuklar – qo‘zgaluvchan jihozlar, odamlar, qor va shamol ta’sirida hosil bo‘luvchi yuklar;

alohida yuklar – zilzila va avariya tufayli buzilishlar ta’sirida hosil bo‘luvchi yuklar. Kuch ta’sirlariga titrash (vibratsiya) ham tegishli bo‘lib, manbasiga bog‘liq holda doimiy, qisqa muddatli va boshqa turlarda bo‘lishi mumkin.

Bino va inshootga ta’sir etadigan har qanday tashqi kuchlar yuklar (nagruzkalar) deb ataladi. Yuklar ta’sir etish xarakteri, ta’sir etish ko‘rinishi, ta’sir etish usuli, ta’sir etish joyiga qarab turli xillarga bo‘linadi (klassifikatsiyalanadi).

Yuklar qo‘yilish vaqtining davomiyligiga qarab statik va dinamik yuklarga bo‘linadi. Statik yuklar inshoot yoki uning elementlariga shunchalik ohista qo‘yiladiki, natijada elementlarda hosil bo‘ladigan tezlanishlarning qiymatini hisobga olmasa bo‘ladigan darajada kichik bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, statik yuklar ta’sirida inshootda tebranish yo‘yug‘onmaydi, yoki uyg‘onsa ham juda kichik bo‘ladi. Dinamik yuklar ta’sirida inshoot va uning elementlarida tezlanish uyg‘onadi, bu esa o‘z navbatida tebranishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘ladi.


Kuch bo‘lmagan ta’sirlarga quyidagilar kiradi:

temperatura ta’siri – konstruksiya va materialni chiziqli o‘lchamini o‘zgarishiga olib keladi hamda xonaning issiqlik rejimiga ta’sir ko‘rsatadi;

atmosfera va grunt namligining ta’siri – bino konstruksiyasi yasalgan materialning tarkibini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi;

havo harakati shamol ta’sirida yuklanishni paydo qilishi va bundan tashqari konstruksiya va xonaning ichiga kiradi xamda ularning namlik va issiqlik rejimini o‘zgartirishi mumkin.

Qurilish me’yorlari va qoidalariga (QMQ) ko‘ra binolar uzoq vaqt o‘z vazifasini ado etishi bo‘yicha IV darajaga bo‘linadi:



Binolarga qo'yilgan asosiy texnik talablardan yana biri binoning yong'in xavfsizligidir. Qurilishda ishlatiladigan materiallar va konstruksiyalar yonish darajasiga qarab yonmaydigan, qiyin yonadigan va yonuvchan guruhlarga bo'linadi.

Bino konstruksiyalari olovbardoshlik chegarasi bilan ham xarakterlanadi. Bu bino olov ta'siridan o'z mustahkamlik, ustivorligini, saqlab tura olishi uchun ketgan vaqt bilan yassi konstruksiya elementlari uchun esa ularda teshik yoriqlar paydo bo'lishi yoki konstruksiyaning olovga teskari yuzasidagi temperatura 1400 C0 gacha ko'tarilishi uchun ketgan vaqt bilan belgilanadi.

Bino va konstruksiyalarni olovbardoshligi jihatdan besh darajaga bo'lish mumkin. Eng katta olovbardoshlik I darajali binolarga, eng kichik olovbardoshlik esa V darajali binolarga tegishli bo'ladi.



Olovbardoshligi I, II va III darajali binolar tosh material yoki pishiq g'ishtdan qurilgan, IV darajali binolar esa sirti suvalgan yog'ochli, V darajalisi suvalmagan yog'ochli binolar hisoblanadi. Olovbardoshligi I va II darajali bo'lgan bino devori, tayanchlari, orayopmalari, ichki to'siq devorlari yonmaydigan bo'lishi kerak. Olovbardoshligi III darajali binolarda devorlari va tayanchlari yonmaydigan, orayopmalari va ichki to'siq devorlari esa qiyin yonuvchi bo'ladi. Yog'och binolar IV va V darajali olovbardoshlikka ega bo'lib, yong'in xavfsizligi talablariga ko'ra ular ikki qavatdan baland bo'lmasligi kerak.

Bino loyahasini yaratishda iqtisodiy talablar bilan bir qatorda xonalarning katta-kichikligi va shakli jihozlari aholining talab va ehtiyojlariga mos kelishi ham e'tiborga olinishi kerak.

Texnik talablar masalalarini hal qilishdagi iqtisodiy muvofiqlik binoning mustahkamligi, ustivorligi va uzoqqa chidamligini ta'minlanishi bilan bir qatorda **1m² maydon sathi yoki 1m³** bino hajmining narxi belgilangan qiymat chegarasidan oshib ketmasligini nazarda tutadi.

Bino narxini tushirish, uni ratsional planlashtirish va yuza sathini, uy hajmini hamda ichki va tashqi pardozi ishlarini belgilashda ehtiyojdan ortiqcha sarflarga yo‘l qo‘ymaslik hisobiga bino turi va ekspluatatsiya sharoitini hisobga olib eng qulay va optimal konstruksiyalarni tanlash, bino qurilishida fan va texnika yutuqlarini hisobga olib zamonaviy usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Binolar xalq xo‘jaligi ahamiyatiga molikligiga va boshqa ekspluatatsion sifatlariga qo‘yiladigan talablarga binoan to‘rt klassga bo‘linadi. I klass binolarga – yuksak talablarni qanoatlantiradigan, IV klass binolari esa eng oz talablarni qondiradigan binolar kiritiladi. Binolar I klassli bo‘lishi uchun I darajali o‘tga chidamli va uzoq vaqt o‘z vazifasini o‘taydigan bo‘lishi, shu bilan birga, a‘lo navli materiallardan qurilgan konstruksiyalari yetarligidan ortiqroq mustahkam bo‘lishi, xonalar shinam hamda yuqori sifatli pardozlangan bo‘lishi kerak. Yirik sanoat korxonalarining binolari, yuqori ekspluatatsion va me‘morlik talablari qo‘yiladigan 9 qavatli va undan ham baland binolari I klassga mansub hisoblanadi. Kichikroq korxonalar binolari, balandligi 9 qavatgacha bo‘lgan turar-joy va jamoat binolari II klassga kiradi. O‘rtacha ekspluatatsion va me‘moriy talablar qo‘yiladigan, balandligi 5 qavatdan oshmaydigan turar-joy binolari III klassga mansubdir. Eng kam ekspluatatsion va me‘moriy talablar qo‘yiladigan muvaqqat vaqtinchalik imoratlar esa IV klassga kiritiladi. Binoning klassini loyiha tuzishni topshiradigan tashkilot belgilaydi.

BINO VA INSHOOTLARGA QO‘YILADIGAN XAVFSIZLIK TALABLARI

- Ishlab chiqarish binolari va inshootlari QMQ 2.09.02-85 «Ishlab chiqarish binolari» talablariga, yordamchi binolar va xonalar QMQ 2.09.04-«Tashkilotlarning ma‘muriy va maishiy binolari» talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

- Ishlab chiqarish binolarining havosidagi zararli moddalar miqdori SanQvaM 0294-11 «Ish joyidagi havodagi zararli moddalarning ruxsat etilgan miqdorining gigienik me‘yorlari» talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

- Muntazam ishlashga mo‘ljallangan ish joylarining nam xonalarida hamda issiq o‘tkazuvchi pollarida (betonli, g‘ishtli, plitali va boshqalar) yog‘och to‘shamalar va panjaralar yotqizilgan bo‘lishi kerak.

- Binoga transport vositalarining kirish joylari darvozalar va signal beruvchi asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

- Darvoza tavaqalari darvozaning yopiq va ochiq holatida maxsus moslamalar bilan mustahkam tutib turilgan bo‘lishi kerak.

- Darvozalar balandligi foydalanilayotgan transport vositasining balandligidan kamida 0,2 m dan baland bo'lishi kerak.

- Barcha ishlab chiqarish binolari va inshootlari bir yilda kamida ikki martadan (bahor va kuzda) tashkilot rahbari tayinlagan komissiya tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazilishi lozim. Texnik ko'rik xulosalari, topilgan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar va muddati ko'rsatilgan dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

- Xodimlar uchun xavf tug'diruvchi halokat tusidagi buzilishlar tezda bartaraf etilishi kerak. Xavfli hududlarda ishlash jarayonlari vaqtida halokat bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turilishi, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xavfsiz joyga ko'chirilishi kerak.

- Tashkilotning ishlab chiqarish xonalari va omborxonalari yong'indan xabar beruvchi va yong'inni bartaraf etuvchi avtomatik qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

- Kirish va chiqish yo'llari turli jismlar va asbob-uskunalar bilan to'sib qo'yilmasligi kerak. Evakuatsiya chiqish yo'llarining barcha eshiklari binodan chiqish yo'nalishi bo'yicha ochilishi lozim.

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi Sud-qurilish-texnik ekspertizasi sudlar tomonidan shaxsiy, umumiy mulkda bo'lgan uy-joylarni bo'lib berish yoki shaxsiy ulushini ajratib berish, oldi sotdi shartnomalarini (uy-joylar bo'yicha) bekor qilish, vasiyatnomalarni (uy-joy bo'yicha) bekor qilish, nikohni bekor qilish va mulkni bo'lib berish, xonadonga suv toshirish natijasida yetkazilgan zararni qoplash, bajarilmagan ishlarni yoki sifatsiz bajarilgan ishlarni undirish singari fuqarolik ishlari bilan bog'liq da'volarda tayinlanadi. Sud-qurilish-texnik ekspertizasida hal etiladigan savollar. Ekspertiza tayinlaganda ekspert oldiga quyidagi savollar qo'yiladi: – uyning (dala hovlining, garajning) baholanishi to'g'rimi (dalolatnomada turar-joy inspeksiyasi baholagan vaqtini ko'rsatish kerak)? – da'vo qilinayotgan uy-joyni, texnik jihatdan qurilish normalari va qoidalarini buzmasdan bo'lib bo'ladimi? – agar da'vo qilinayotgan uy-joyni ajratib berilgan ulushlarga mos qilib bo'lib bo'lmasa, texnik jihatdan da'vo qilinayotgan tomonga ajratib berilgan ulushlarga yaqinroq qilib bo'lib bo'ladimi? – texnik jihatdan bo'linishi mumkin bo'lgan uy-joyning da'vo qilinayotgan ulushlarining bahosi qanday? – uy-joyni texnik jihatdan bo'lish mumkin bo'lgan variantini amalga oshirish uchun qanday qayta jihozlash ishlari (xonalarni, xonadonlarni ajratishizolyatsiya qilish)ni olib borish kerak? – ruxsatsiz (o'z ixtiyori bilan)



qurilgan qurilmalardan foydalanishning texnik tartibini aniqlash. Yuqorida ko'rsatilgan savollarni yechish uchun quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim: – uy joyning inventar hujjatlari, qurilmalarning texnik tasnifi va ko'rsatilgan bahosi, hovlining asosiy qurilmalari bilan rejasi; – har bir qurilmaning baholanish dalolatnomasi (konstruktiv elementlari), ularning texnik holati va hisoblangan narxi ko'rsatilishi kerak; – ko'rsatilgan qurilmalar loyiha talablariga, qurilish me'yorlariga, loyihalash va ishlar olib borish qoidalariga javob beradimi? Bu savollarni yechish uchun ekspertga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etish lozim: – uy-joyning inventar hujjati, yer uchastkasi berilishi haqidagi qaror; – uy-joyning umumiy yoki yagona loyihasi, yer uchastkasida uy-joy qurish, doimiy foydalanishga berilganligi haqidagi shartnoma; – uy-joyni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi; – qurilmalarning, xonadonlarning rejalari. Ushbu turdagi ekspertizalar jarayonida quyidagi savollar ham hal etilishi mumkin: – taqdim etilgan smetada qayta tiklash ishlariga (qurilmalarning eskirganligi, noto'g'ri foydalanganligi yoki avariya hodisasi ro'y berganligi sababli) qo'yilgan narx asoslimi? – smetada ko'rsatilgan ishlarning qaysi biri to'liq, qaysi biri mayda tuzatish ishlariga kiradi, ularning bahosi qanday?

Bu savollarni yechish uchun quyidagi ma'lumotlarni taqdim etish lozim: – qurilmalarning (xonadonlarning) rejalari, xonalarning o'lchamlari, balandligi, derazalar, eshiklar, javonlarning o'lchamlari va joylanishlari bilan va h.k.; – qurilmalarning (xonadonlar) malakali mutaxassislar (muassasalar) tomonidan ko'zdan kechirish dalolatnomalari; – ta'mirlash-qurilish smetalari. Uy-joylar ichki ishlanishining zararlanishidagi texnik sabablar, uy joylarning namlik va harorat tartiblarining buzilishini aniqlash bo'yicha savollar: – aniqlangan kamchiliklarni (hammasini ko'rsatish kerak) ichki nuqsonlar deb hisoblasa bo'ladi? – ko'rsatilgan kamchiliklarni ta'mirning qaysi turi bilan tuzatsa bo'ladi? – qurilmalardagi sharoit ishlar bajarilishiga zarar keltiradimi? Bu savollarga javob berish uchun quyidagi ma'lumotlar kerak: – shikastlangan joylarning aniqlangan paytidagi ob-havosi to'g'risida gidrometeorologik markazidan ma'lumotnoma (harorat, namlik, shamolning kuchi va h.k.); – xonadonga berilgan almashish orderi va order berilishiga asos bo'lgan hujjatlar; – xonadon, tekshirilishi to'g'risidagi dalolatnoma; – ko'zdan kechirish kuni isitish tarmoqlari ko'rsatgichlari (harorati, bosimi); – isitish tarmoqlari va xonalarning sxema va chizmalari. Yuqoridagi savollarga javob berish uchun qurilmani yoki bajarilgan ishni ekspert ko'zdan kechirishi zarur. Ko'zdan kechirish sud tomonidan tashkillashtiriladi. Sud qurilish-texnik ekspertizasi qurilishda ishlab chiqarish va qabul qilish hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik, talon-taroj ishlari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tayinlanadi. Ekspertiza tayinlanganda quyidagi savollar qo'yilishi mumkin: – qabul qilish dalolatnomalarida ko'rsatilgan bajarilgan ishlarning hajmi qo'shib yozilganligi to'g'rimi? – qabul qilish dalolatnomasida ko'rsatilgan bajarilgan ishlarning bahosi qo'shib yozilganligi to'g'rimi?

Bunday savollarni yechish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim: – nazorat taftish dalolatnomasi va moddiy javobgar shaxslarning izoh xatlari; – jamg'arma to'lagan va buyurtmachi bilan pudratchi tasdiqlagan bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi (asl nusxasi); – komissiya moddiy javobgar shaxslarning

(ayblanuvchi yoki gumon qilinayotgan shaxs) va pul o'tkazgan bankning xodimi ishtirokida o'tkazgan amalda bajarilgan ishlarning nazorat o'lchovlari dalolatnomasi; – tekshirilayotgan qurilish ob'ektining bajarilgan ishlari daftari; – qurilish ob'ektining smeta va loyiha hujjatlari; – tadqiqot ob'ekti bo'yicha rejaning bajarish hisoboti ro'yxatlari; – nazorat o'lchov dalolatnomalariga yig'ma va solishtirma axborotnomalar; – kerakli oraliq shartnomalar.

Ushbu turdagi ekspertizalar jarayonida quyidagi savollar ham hal etilishi mumkin: – tuzilgan qurilish (ta'mirlash loyiha-smeta hujjatlari) texnik jihatdan asoslimi hamda amaldagi qurilish normalariga va qoidalariga muvofiqmi? – qurilish smetalari tuzilgan chizmalarga to'g'ri keladimi? Agar ishlarning hajmi yoki narxi ko'paytirilgan bo'lsa, qanchaga ko'paytirilgan? Bunday holda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim: – loyiha-izlanish ishlarining ro'yxatlari; – loyihalar (vazifa ilovasi bilan), ilovalar, barcha bog'lovchi ma'lumotlar; – arxitektorlik-rejalashtirish vazifalari; – tekshirilayotgan loyiha-smeta hujjatlari (loyiha muassasasidan arxiv nusxasi) va loyiha-smeta hujjatlari tasdiqlanishining 6-forma bo'yicha bayonnomasi; – qurilish uchastkasining muhandis-geologik xulosasi; – loyiha-smeta hujjatlarga korxonaning texnik ekspertiza xulosasi; – tasdiqlangan yig'ma smeta hamda qurilishni boshqarayotgan shaxslar o'rtasida ishlarni taqsimlanishi to'g'risidagi qarordan ko'chirma; – mansabdor shaxslarning texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinishiga javobgarligi va majburligi haqida yo'riqnoma. Konstruksiyalarning buzilishi bilan bog'liq savollar hal etilganda tegishli hujjatlardan tashqari quyidagilarni ham taqdim etish lozim: – bajarilgan ishlarning hisoboti jurnali; – ob'ektning loyiha hujjatlari; – qurilish uchastkasining muhandis-geologik xulosasi; – mustahkamlik sinoviga materiallardan namunalari olinishi haqida dalolatnomalar va laboratoriyada konstruksiya materiallarini tekshirish natijalari (beton, g'isht, eritma va h.k.z.); – buzilgan konstruksiyalarning va voqea sodir bo'lgan joyning chizmalari va fotosuratlari; – voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish dalolatnomasi; – yig'ma temir-beton buyumlar yoki boshqa buzilgan qurilish materiallarining asl texnik pasportlari; – payvand ishlari daftari va temir-beton qurilmalarining to'qnash joylarini betonlash daftari (metall yoki temir-beton konstruksiya buzilganda). Ro'yxatda ko'rsatilgan savol va hujjatlardan tashqari ham savollar qo'yilishi mumkin, chunki har bir tergovdagi hodisa o'ziga hos vaziyatlarga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, ekspert oldiga qo'yilgan savollar aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Savolda hujjatning nomi va jinoiy ishda qayerda joylashganligi ko'rsatilishi kerak. Nazorat o'lchovlarining o'tkazilishi ekspert vazifasiga kirmaydi, buni mutaxassislar komissiyasi moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkazadi. Natijalari amaldagi yo'riqnomalarga binoan rasmiylashtiriladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan, «milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda energiya va material sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiyatejamkor texnologiyalarni keng tadbiq qilish» vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2016 yil 28 sentabridagi

PQ2660-son “2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha qulay uy-joylarni qurish dasturi to‘g‘risida”, 2017 yil 8- avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2017 yil 17-iyuldagi PQ-3379-sonli "Energetik resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda Bino va inshootlar arxitekturasi fanini zamon talablari asosida o‘qitish zarur. “Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda o‘qitiladigan asosiy fanlardan biri “Bino va inshootlar arxitekturasi” fanidir. Bu fan “Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan bo‘lajak quruvchilarga turli vazifalarga mo‘ljallangan bino va inshootlarni loyihalashning me‘morchilik asoslarini, loyihaladigan binolar va inshootlarning hajmiy–rejaviy yechimlarini ularda qo‘llaniladigan qurilish konstruksiyalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatadi.



“Bino va inshootlar arxitekturasi” fani qurilish majmuasini yuqori texnologiyalarga asoslangan samarali qurilish materiallari va buyumlari, ekologik sof qurilish konstruksiyalari bilan ta‘minlashda, texnologiyalarni yaratishda, bino va inshootlarning mustahkamligini, turg‘unligini va energiyatejamkorligini ta‘minlashda muhim o‘rinni egallaydi. Mazkur fanni o‘rganish davomida talabalar respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy qurilish konstruksiyalari hamda ularning rivojlanish an‘analari bilan tanishadilar. Yaqin o‘tmishda ham binolar va inshootlarni loyihalash, qurish masalasi bilan bir kishi, odatda me‘mor (arxitektor) shug‘ullanar edi. Fan va texnika rivojlanib, binolar o‘lchamlari yiriklashib, undagi konstruktiv yechimlar va jihozlar murakkablashib borgan sari, binolarni loyihalash va qurish bilan bog‘liq bo‘lgan turli–tuman me‘moriy va muhandislik masalalarini bir kishi hal etish mumkin bo‘lmay qoldi. Hozir binolar va inshootlarni loyihalash hamda qurishda malakali mutaxassislardan tashkil etilgan jamoalar – arxitektor-konstruktorlar shuningdek turli ixtisosligi bo‘lgan muhandislar ishtirok etmoqdalar. Loyihalashtirish jarayonida arxitektor bo‘lg‘usi bino va inshootning rejasini, uning hajmiy–fazoviy kompozitsiyasini tuzadi, bino va inshootning me‘moriy, badiiy, kerak bo‘lsa, ijtimoiy–siyosiy qiyofasini yaratadi. Zamonaviy quruvchi esa arxitektor tuzgan bino yoki inshootning hajmiy– rejaviy yechimini, qurilish materiallari va konstruksiyalari yordamida ro‘yobga chiqaradi, konstruksiyalarni mustahkamligini, ustivorligini, turg‘unligini, zilzilabardoshligini va foydalanish jarayonida qo‘yiladigan boshqa talablarni hisoblaydi. Loyihalash va qurilishda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislar bir–birlarining ish faoliyati to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak. Ayniqsa, arxitektor bilan quruvchi o‘rtasidagi yaqin hamkorlik, hamfikrlik juda

katta ahamiyatga ega. Arxitektura, qurilish amaliyoti va qurilish texnikasining rivojlanishi bir-biriga bog‘liq holda amalga oshadi. Zamonaviy samarali qurilish materiallari va konstruksiyalar, qurilish texnikalarining yaratilishi yangi tipdagi binolar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi yoki aksincha. Zamonaviy qurilishining asosiy vazifasi yangi texnika va texnologiya asosida mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishdir. So‘ngi yillarda mamlakatimizda boshqa sohalar qatori qurilish sohasida ham juda katta yutuqlarga erishildi. Respublikamiz kundan-kunga tanib bo‘lmas darajada chiroy ochib bormoqda. Mamlakatimizning turli joylarida aqilga sig‘mas bunyodkorlik ishlari bajarilib kelinmoqda. Ko‘plab hashamatli binolar, sport saroylari, yopiq bozorlar, zamonaviy ko‘cha va maydonlar, xiyobonlar va bog‘lar, turar-joy binolari, ijtimoiy soha ob‘ektlari shuningdek boshqa qurilish va arxitektura sohasidagi ishlarning ko‘lamida dalolat terib turibdi. Qurilish mahsulotining sifatini va uning yaratilishi asosan uch bosqichda shakllanadi: – loyihalash; – konstruksiyalar, buyumlar va uskunalarni tayyorlash; – qurilish-montaj ishlarini sifatli bajarish. Qurilish mahoratini sifatini ko‘tarishda bino va inshootlarning loyihasi asosiy o‘rin tutadi. Loyihani progressiv yechimiga qaratilgan asosiy fondlar, mahsulot-lar tannarxi, foyda rentabillik, mehnat sharoiti va unumdorligiga bevosita bog‘liq. Binobarin, sanoat fondi sifati va samaradorligi yetarli darajada yangi korxonalar loyihalarini yaratish va mavjudlarini qayta tiklash, modernizatsiyalash va ta‘mirlash bosqichida oldindan aniqlanadi. Loyihalarda korxonalarning texnik-iqtisodiy samaradorlik dastlabki poydevori qo‘yiladi. Loyiha yechimining samaradorligiga ta‘sir etuvchi muhim omillardan biri loyihaning texnologik va qurilish qismlari bog‘liqligi hisoblanadi. Hozirgi bozor iqtisodi davrida mamlakat xalq xo‘jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichi inson faoliyati muhitini shakllantirish ob‘ektlariga yuqori talablar qo‘yilishi bilan xarakterlanadi. Bu to‘la ma‘noda sanoat binolariga tegishlidir. Shahar binolari shahar tizimida yoki tabiat lanshaftida joylashib, uning funksional tuzilishida faol ishtirok etadi. Bu talablarning qoniqtirilishi shahar strukturasi murakkablashtirayotgan funksional reja zonalash sharoitlarida, o‘zlashtirish hisobiga mavjudlarini rivojlantirishda, turarjoy tizimlari ichida havo va suv muhitini ifloslantirmaydigan sanoat ob‘ektlarining ommaviy qurilishda va hamda ommaviy qayta ta‘mirlash ishlarida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shahar strukturasi murakkablashayotgan funksional-reja zonalar sharoitlarida, yangi shaharlar qurilishi va hududlar chekkalarini o‘zlashtirish hisobiga mavjudlarini rivojlanti-rishda, sanoat ob‘ektlarining ommaviy qurilishi va qayta tiklash, ta‘mirlashlari ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli amalga oshirmoqda. Yurtimizda milliy istiqloqlarning shakllanishi mamlakatimiz shahar xo‘jaligining jamoat binolariga texnik xizmat ko‘rsatish, ularni ekspluatatsiya qilishi borasida qilinayotgan chuqur islohatlarni hayotga joriy etish va ularni ilg‘or mamlakatlarda to‘plangan tajribalar asosida yuksak pog‘onalarga ko‘tarish, yetishib chiqayotgan mutaxassislar oldida turgan muhim vazifadir. Har qanday binolar o‘z vazifasiga ko‘ra ma‘lum bir texnik-iqtisodiy, arxitektura kabi talablarga javob berishi kerak. Ya‘ni bino qaysi jarayonga, maqsadga mo‘ljallangan bo‘lsa u shu jarayon talabiga to‘liq javob berishi kerak. Bino mustahkam va ustivor bo‘lishi, espluatatsiya sifatlarini uzoq yil davomida saqlashi lozim. Iqtisodiy jihatdan qulayligi, ya‘ni bino va inshootlar qurilishida,

kapital va joriy ta'mirlash ishlarida mehnat sarfini kamaytirish, qurilish materiallari hamda vaqtni tejash ko'zda tutiladi. Binolarning funksional jihatlari, insonning hordiq chiqarishi va mehnat qilishi uchun yaratilgan suniy muhitning sifati ularning konstruktiv yechimiga bog'liq. Bu muammoni hal qilishda ham arxitektor va quruvchilarning yaqin hamkorligi talab etiladi. Shuning uchun quruvchi-pedagog me'morchilik asoslarini bilishi, uning yo'nalishlarini tushunishi zarur. Shundagina qulay, ko'rkam va tejamli bino va inshootlar yaratishdek ijodiy masalalarni muvaffaqiyat bilan hal etish mumkin. Hozirgi paytda respublikamizda katta quvvatli qurilish industriyasi mavjud. Deyarli har bir shaharda yig'ma temirbeton konstruksiyalari ishlab chiqariladigan zavodlar, uysozlik va qurilish materiallari kombinatlari ishlab turibdi. Bu esa ommaviy qurilishda yirik o'lchamli konstruksiyalardan foydalanish asosiy yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Hozirgi davrda xorijiy mamlakatlardagi arxitektura va qurilish amaliyoti sohasida erishilgan tajribalar va yutuqlarni har tomonlama o'rganish, ulardan foydalilarini keng ko'lamda respublikamizda qo'llashni yo'lga qo'yish juda muhim. Qurilishning rivojlanishi bilan otrof muhitni muhofaza qilishni uzviy bog'liq holda hal etish muhim va dolzarb masaladir. Bunga etiborni kuchaytirish lozim. O'zbekiston xududi tog'lar va tekisliklar, cho'llardan iborat yam-yashil vohalarga boy. Respublika hududi uchun iqlimiy, zilzila va boshqa turdagi xududlashtirish xaritalari ishlab chiqilgan. Loyihachi arxitektor va quruvchining vazifasi – loyihalanadigan binolar uchun barcha sharoitlarni har tomonlama o'rganish va ularning eng oqilona yechimlarini topishdir.